

Toshkent viloyatida demografik holat

2025- yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari
va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2025- yilning 1- aprel holatiga Toshkent viloyatining doimiy aholisi soni **3 121 531** kishini tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan **1,8** foizga ko'paygan. 2025- yil yanvar-mart oylarida tug'ilganlar soni **15 425** nafarni, vafot etganlar **3 872** nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish **11 553** kishiga teng bo'ldi. Ko'chib kelganlar soni **7 735** kishini va ko'chib ketganlar soni **6 286** kishini, qayd etilgan nikohlar **3 003** birlikni, nikohdan ajralishlar **1 127** birlikni tashkil etgan.

Doimiy aholi soni	3 121 531	<i>kishi</i>
Tug'ilganlar soni	15 425	<i>kishi</i>
Vafot etganlar soni	3 872	<i>kishi</i>
Ko'chib kelganlar	7 735	<i>kishi</i>
Ko'chib ketganlar	6 286	<i>kishi</i>
Nikohlar soni	3 003	<i>birlik</i>
Nikohdan ajralishlar soni	1 127	<i>birlik</i>

II. Doimiy aholi soni


Toshkent viloyatida doimiy aholi soni 2025- yil 1- aprel holatiga ko'ra **3 121 531** kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **55 532** kishiga yoki **1,8** foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda **1 559 397** kishi (jami aholi soniga nisbatan **50,0 %**), qishloq joylarda esa **1 562 134** kishi (**50,0 %**) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni **1 554 598** kishini (**49,8 %**), erkaklar esa **1 566 933** kishini (**50,2 %**) tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni (1- aprel holatiga, ming kishi)

	2024- yil	2025- yil	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
Viloyat bo'yicha:	3 066,0	3 121,5	101,8
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	56,5	57,8	102,3
Olmalik	147,1	149,5	101,6
Angren	183,3	186,2	101,6
Bekobod	104,9	106,4	101,4
Ohangaron	41,5	42,3	101,9
Chirchiq	173,6	176,1	101,4
Yangiyo'l	85,9	87,6	102,0
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	112,6	114,4	101,6
Ohangaron	111,7	113,4	101,5
Bekobod	166,2	168,9	101,6
Bo'stonliq	177,1	178,5	100,8
Bo'ka	135,0	137,2	101,6
Quy Chirchiq	116,4	118,1	101,5
Zangiota	172,2	176,8	102,7
Yuqori Chirchiq	139,8	142,3	101,8
Qibray	176,2	179,4	101,8
Parkent	179,2	182,8	102,0
Piskent	101,9	103,7	101,8
O'rta Chirchiq	137,9	141,1	102,3
Chinoz	146,1	148,7	101,8
Yangiyo'l	201,0	204,8	101,9
Toshkent	199,9	205,5	102,8

Toshkent viloyatida 2025- yil 1- aprel holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **206,2** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **3,7** kishiga ortgan (2024- yil 1- aprel holatiga 1 kv.km.ga **202,5** kishi).

Aholi zichligi (1- aprel holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni)




III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Viloyatimizda 2025- yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **15 425** kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **20,1** promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2024- yilning mos davriga nisbatan **1 519** nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **3 872** kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **5,0** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2024- yilning mos davriga nisbatan **257** nafarga ko'paygan.


Tug'ilganlar va vafot etganlar soni (yanvar-mart oylarida, kishi)



Viloyatda tirik tug'ilganlar soni **15 425** kishini, shundan o'g'il bolalar soni **7 977** kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan **51,7 %**), qiz bolalar soni **7 448** kishini (**48,3 %**) va shahar joylarida **7 028** kishini (**45,6 %**), qishloq joylarida **8 397** kishini (**54,4 %**) tashkil etdi.

Viloyatimizda vafot etganlar soni **3 872** kishini, shundan erkaklar **2 145** kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan **55,4 %**), ayollar **1 727** kishini (**44,6 %**) va shahar joylarida **2 319** kishini (**59,9 %**), qishloq joylarida **1 553** kishini (**40,1 %**) tashkil qildi.

**Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi
(yanvar-mart oylarida, kishi)**




IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Viloyatimizda 2025- yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan nikohlar soni **3 003** birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **3,9** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2024- yilning mos davriga nisbatan **209** birlikka kamaygan.

Nikohdan ajralishlar soni **1 127** birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **1,5** promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2024- yilning mos davriga nisbatan **62** birlikka kamaygan.


Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni (yanvar-mart oylarida, birlik)



Viloyatimizda qayd etilgan nikohlar soni **3 003** birlikni, shundan shahar joylarida **1 594** birlikni (**53,1 %**), qishloq joylarida **1 409** birlikni (**46,9 %**) tashkil etdi.

Viloyatimizda nikohdan ajralishlar soni **1 127** birlikni, shundan shahar joylarida **647** birlikni (**57,4 %**), qishloq joylarida **480** birlikni (**42,6 %**) tashkil qildi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi (yanvar-mart oylarida, birlik)



V. Aholi migratsiyasi

2025- yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni **7 735** kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **7 679** kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar **56** kishini tashkil etdi.


Ko'chib ketganlar jami soni **6 286** kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **5 771** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar **515** kishini tashkil qildi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Viloyat bo'yicha:	7735	7679	56	6286	5771	515
<i>shaharlar:</i>						
Nurafshon	243	242	1	124	122	2
Olmalik	420	412	8	357	344	13
Angren	232	231	1	205	203	2
Bekobod	176	176	-	235	230	5
Ohangaron	280	280	-	94	92	2
Chirchiq	644	643	1	363	323	40
Yangiyo'l	252	250	2	204	198	6
<i>tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	123	121	2	168	139	29
Ohangaron	196	196	-	256	246	10
Bekobod	174	174	-	243	242	1
Bo'stonliq	94	94	-	285	229	56
Bo'ka	146	146	-	197	179	18
Quyi Chirchiq	195	187	8	247	167	80
Zangiota	1053	1053	-	551	526	25
Yuqori Chirchiq	422	420	2	325	272	53
Qibray	669	669	-	618	596	22
Parkent	114	113	1	132	125	7
Piskent	178	175	3	225	220	5

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
O'rta Chirchiq	459	448	11	391	374	17
Chinoz	188	175	13	206	143	63
Yangiyo'l	548	548	-	457	414	43
Toshkent	929	926	3	403	387	16

Xorijdan ko'chib kelganlar va xorijga ko'chib ketganlar soni (yanvar-mart oylarida, kishi)



VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuv shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.